

## Fakultet yetakchisi saylandi

2018-yil 29-sentyabr kuni 2-ma'ruza zalida "Gidromelioratsiya" fakulteti Yoshlar yetakchiligi saylovi bo'lib o'tdi. Saylovni fakultet dekani A.Fatxullayev olib berdi. Saylovda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinososari X.To'ychiyev va institut "Yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti yetakchisi A.Berdimurodov hamda fakultetda tahsil olayotgan akademik guruuhlar "Yoshlar ittifoqi" yetakchilari va talaba yoshlarning 95 nafari ishtirokida "Gidromelioratsiya" fakultetining Yoshlar Kengashi hisobot-saylovi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda fakultet dekani Alisher Fatxullayev saylovni olib berdi hamda so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni va 2017-yil 18 - iyuldagagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori mazmun - mohiyati, shuningdek, o'tgan o'quv yilida fakultetda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida o'z fikrlarini bildirib o'tdi va talabalarni bundanda faol bo'lishga chaqirdi. Yig'ilishda shuningdek, institut "Yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi so'zga chiqib saylov komissiyasiga kelib tushgan arizalar asosida, fakultet yetakchiligi vazifasini bajarish uchun 4 nafar nomzodlar ro'yxatini o'qib eshittirib, ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi. Shundan so'ng nomzodlarga ochiq ovoz berishlarini ta'kidlab o'tdi. Nomzodlar o'z saylov oldi dasturlari bilan yig'ilganlarni tanishtirib o'tishdi. Saylov natijasiga ko'ra, fakultetning 2-kurs talabasi Olimjonov Nodir Olimjonovich "Yoshlar ittifoqi" yetakchisi etib saylandi.



**"Gidromelioratsiya" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinososari X.To'ychiyev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**